

## BOTU SHE'RIYATIDA INTERTEKSTUALLIKNING IFODALANISHI

**Muyassarxon To'xtaboyeva**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Har qanday asar badiiyati yoki yozuvchining badiiy til mahorati tadqiq qilganda asar yozilgan davr, yozuvchining jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy voqelikka munosabati, davr ruhi birgalikda tekshirilganda muhim lingvopoetik tadqiqotlar yuzaga keladi. Mazkur maqolada Botu she'riyatining lingvopoetikasi, xususan intertekstuallik masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** intertekstuallik, jadid, badiiy matn, badiiy niyat, lingvopoerika.

**Annotation.** When the art of any work or the artistic language skills of a writer are researched, important linguistic research occurs when the period in which the work is written, the place of the writer in society, his attitude to social reality, the spirit of the period are examined together. This article covers the linguopoetics of Botu poetry, in particular the question of intertextuality.

**Keywords:** intertextuality, jadid, artistic text, artistic intention, linguopoerica.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida sintaktik figuralar va ularning tasnifi masalasi dolzarb muammolardan sanaladi. Bu boradagi tadqiqotlarning barchasida u yoki bu shaklda sintaktik figuralarga murojaat qilinadi. Sintaktik figuralar nutqning obrazlilikini ta'minlashda, ta'sirchan ifoda shakllarini yaratishda behad muhim vositalar hisoblanadi. Nutqning ta'sirchanligini oshiradigan emotsional-ekspressivlikni hamda intonatsion yaxlitlikni ifodalovchi bunday vositalar "poetik figuralar" nomi ostida o'rganiladi. Ularning vazifasi nutqni ta'sirchan yoki jozibali qilish bilan cheklanib qolmaydi. Poetik figuralar kitobxonga she'rni tez va qulay idrok etish imkonini yaratadi. She'riy nutqqa bir qadar me'yorlashib, shakliy, uslubiy va mazmuniy jihatdan xoslanib qolgan vositalar poetik figuralar hisoblanadi. Ular ko'chimlardan farqli o'laroq ifodaviylik, tasviriylilikni kuchaytirish maqsad qilingan alohida obrazli birikmalar tarkibida keladi. Bu masalani dissertatsion planda o'rgangan T.Abdupattoyev o'zining "O'zbek tilining poetik sintaksisi" dissertatsiyasida shunday fikrni ilgari suradi: "Poetik nutqning lingvistik tahlili tadqiqotchidan undagi har bir mazmuniy noziklik va ma'no tovlanishlarini his qilgan holda yondashishni talab etadi. "Poetikada har qanday nutqiy birlik poetik figuraga aylanadi", – deb yozadi rus tilshunosi Y.V.Kazarin. Badiiy nutqning obrazlilikini faqatgina zarur so'zlarni tanlay

bilish mahorati bilan o'lchanmaydi, balki ana shu so'zni sintaktik konstruksiyalar tarkibida qanday maqsadda, qanday ma'noda qo'llanishi hamda qanday intonasiyada yetkazilishi bilan bog'liq bo'ladi<sup>1</sup>.

Botu she'riyatining tili XX asrning boshlarida jadid ziyolilari tomonidan ilgari surilgan o'zbek adabiy tilini me'yorlashtirish, badiiy til imkoniyatlarini ko'rsatib berish kabi talablarga muvofiq keladi.

Laziz Azizzoda shoir haqidagi xotiralarida shunday yozadi: "Botu (Mahmud Xodiyev) faqat XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotigagina emas, balki o'zbek jurnalistikasi va madaniyatiga ham sezilarli hissa qo'shgan madaniyat va jamoat arbobidir. Atoqli adabiyotshunos olim, professor Izzat Otaxonovich Sulstonov to'g'ri qayd qilganidek, uning qisqa umrida o'zbek madaniyati va adabiyoti tarixiga qo'shgan hissasi, asosan, asrimizning 20-yillariga to'g'ri keladi. Bu yillar yangi o'zbek adabiyoti va madaniyatini yaratish davri bo'lganligi sababli Botuning badiiy ijod va madaniyat sohasida qilgan ishlari alohida ahamiyatga egadir"<sup>2</sup>.

Fanda intertekstuallik degan tushuncha bor. "Intertekstuallik bu – matn ma'nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. Intertekstuallik allyuziya, sitata, plagiat, tarjima, sivilizatsiya, parodiya kabilarni o'z ichiga oladi"<sup>3</sup>. Tadqiqotchi mazkur hodisaning o'rganilishiga doir fikrlarini ilgari surar ekan, fransuz filologi J.Jenettning matnlararo harakatni 5 guruhga ajratib, tasniflaganligi haqida ma'lumot beradi:

1. Intertekstuallik. Bunda bir matn ichida ikki yoki undan ortiq o'zga matn parchasining kelishi kuzatiladi.

2. Paratekstuallik. Badiiy matnning sarlavhasi, epigraf va so'nggi so'zi bilan o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi hodisa.

3. Metatekstuallik. Matnning o'zidan oldin yaratilgan boshqa matn bilan dialogik aloqaga kirishuvi.

4. Gipertekstuallik. Ma'lum bir matnning parodiya qilinib, o'zgartirilishi.

5. Arxitekstuallik. Matnlar orasidagi janriy bog'lanishlarning mavjud bo'lishi<sup>4</sup>.

Badiiy matnda intertekstuallikning bir qismi sifatida tilning barcha darajalari maqsadli ravishda birlashtirilishi va rejaga bo'ysunishi kerak. Bular, birinchidan, leksik-frazeologik vositalar, ya'ni turli xil kelib chiqishi va hissiy tovushiga ega bo'lgan so'z va iboralarni tanlash; umumiy va umumiy bo'lmagan (arxaizmlar, istorizmlar) kabilar. Tilning morfologik hodisalari leksik-frazeologik birliklarga tutashib ketadi. Bular, ikkinchidan, so'zning tor ma'nosida nutq semantikasi: so'zlarning majoziy ma'nolari, allegoriyalar, troplar. Bundan tashqari, badiiy nutq o'quvchining hissiyotlariga qaratilgan qatlamlarni ham o'z ichiga oladi. Bular intonatsion-sintaktik, fonetik, ritmik boshlanishlardir. "Tirik jonlarning unib o'sishi

<sup>1</sup> Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол.фан.д-ри (DSc)... дисс.Фарғона, 2021. – Б. 154.

<sup>2</sup> Боту. Тил ва имло конференцияси якунлари. Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 153.

<sup>3</sup> Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик. Филол. фан. б. ф. д-ри (PhD)... дисс. –Тошкент, 2021. – Б. 13.

<sup>4</sup> Qarang: Хомидова М. О'sha manba. – Б. 17.

uchun toza havoning ahamiyati, qanchalik katta bo'lsa adabiyotimizning ravnaqi uchun chinakam badiiy til ahamiyati shunchalik zo'r"<sup>5</sup>.

Zamonaviy yozuvchilar nasrida vaqtinchalik xususiyatlar janr yoki semantik jihatdan farq qiladigan boshqa matn bilan kompozitsion va lingvistik aloqa ko'zga tashlanadi. G.D.Axmetovanning fikricha, "Matnlararo verbal qatorlardan foydalanish sabablari xilma-xildir"<sup>6</sup>. Chunki adabiyot ham uslubiy xilma-xillik, ham davr nuqtayi nazardan an'analar bilan aralashmasi bilan ajralib turadi. Intertekstuallik asarlar polifoniyasini o'zida mujassam etadi va qahramonlar timsolida ushbu asarlarni yaratganlarning qarashlarini aks ettiradi. Intertekstuallik tushunchasini matnlararo aloqalar tushunchasi bilan bog'lash mumkin. Zamonaviy adabiyotda matnlararo aloqalarning barcha turlari mavjud. Ko'pincha ularning matnga kiritilishi yozuvchining individual uslubining belgisidir. "Aksariyat tadqiqotlarda esa intertekstuallik ikki badiiy matnning o'zaro aloqasi, ya'ni ikkita turli yoki bir davrda yashagan adiblarning asarlaridan o'zaro foydalanish hodisasi sifatida izohlanadi. Bu aloqa badiiy matnning umumiy kompozitsiyasida, asosiy qahramonlar xarakterida yoki peyzaj tasvirida kuzatilishi mumkin. Shunga ko'ra, matn bir paytning o'zida mavjud va yana qayta takror bo'ladigan noyob hodisa hisoblanadi. Uning fikricha, matnda intertekst sifatida kelgan sitatalar ham makon va zamon, subyekt(matn)ning pragmatik vaziyatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. Intertekstuallik terminini fanga kiritgan Y.Kristevaning fikricha, har qanday matn minimal ravishda kamida ikkita turli kodlar bilan kesishadi. Tadqiqotchi ta'kidlagan kodlar bu – ikkita yoki undan ortiq matnlardir. Shuningdek, u o'z ishida har bir matnni sitatalar mozaikasidan tashkil topgan bir butunlik sifatida baholaydi. Ammo ular bir joyga shunchaki tizilmagan bo'ladi, ko'pincha ular turli matnlar, dialoglar orqali birlashtiriladi."<sup>7</sup>

Botu she'riyatida shunday bir she'r borki, u haqda to'xtalmaslik mumkin emas. Bu she'r "Kel, birga kulaylik" deb nomlangan bo'lib, jadid adabiyotining yirik vakili Abdulhamid Sulaymon Cho'lponga atalgan. Cho'lponning ismi yozilmagan bo'lsa-da, epigrafda "Soz"li do'stinga deb qayd qilinganligining o'zi maslakdoshining "Soz" to'plamiga ishora qiladi:

*Tong yerdan qo'zg'ala olmas,  
O'y yanglig' ko'kka ucholmas,  
Yo'q, arshda javlon etolmas,  
Kel emdi birga yuraylik,  
Kel emdi birga kulaylik!  
Borliqning chokini so'kma,  
Og'uli ko'z yoshi to'kma,*

<sup>5</sup> Кодиров П. Бадий тил муаммолари. –Тошкент: Фафур Гулом нашриёти. 1977. – Б. 140.

<sup>6</sup> Ахметова Г. Д. "Языковая композиция художественного текста (на материале русской прозы 80-90-х годов XX в.)". – М., 2002. – С. 264.

<sup>7</sup> Хомидова М. O'sha manba. –Б. 19.

*Kel emdi yashnab o'saylik,  
Kel emdi birga kulaylik!  
Ko'p kunlar boshdagi kuchni  
Sezgining oldiga to'kding,  
Qayg'ular oldida cho'kding,  
Kel emdi erlik etaylik,  
Kel emdi birga kulaylik!  
Zo'r sozchi, so'zga quloq sol,  
Sozingni o'zgacharoq chol, (chal)  
Ko'nglingni nurga ko'mib ol,  
Kel emdi so'lga ketmaylik,  
Kel emdi birga kulaylik!*

Sezilib turganidek, Cho'lponni yangi tuzumga moslashishga da'vat qiladi. She'rdagi takroriy birliklar shoir maqsadining kuchli ta'kid bilan ifodalanishiga imkon yaratgan. Bu she'rda Cho'lpon she'riyatiga ishoralar aniq ko'rinib turadi. Epigrafdagi "Soz"li do'stinga iborasi Cho'lponning "Soz" (1935) to'plamini yodga solsa, *tong, kulmoq, soz chalmog, ko'z yosh to'kmoq* kabi birliklar Cho'lpon ideostilini eslatadi.

Yuqoridagi she'riy parchada paratekstuallik, metatekstuallik va arxitekstuallik hodisasi bilan bog'liq komponentlar kuzatiladi. Ya'ni epigrafda to'g'ridan-to'g'ri ishora mavjud. Bu paratekstuallik bilan izohlansa, Botuning Cho'lpon qalamiga mansub "Kulmak istading" she'ri bilan go'yo dialogik aloqaga kirishgan. Ifoda uslubining o'xshashligi esa arxitekstuallik tamoyiliga to'g'ri keladi.

**Epigraflar** ham intertekstuallikning muhim turi hisoblanadi. Epigraflar orqali matnlararo aloqadorlik saqlanadi.

*Jannat – bu go'zal, jozibali ot,  
Ko'pdan beri yer ustida xoqon.  
Xoqonga bo'yin tovlasa bir zot,  
Majnun qilichi ostida qolgan.*

Satrlari bilan boshlanuvchi she'r uchun taniqli turk shoiri Tavfiq Fikratning *Dunyo do'najak jannata inson-la inondim* misrasini epigraf qilib olgan. Tavfiq Fikratning jannat bilan bog'liq qarashlari shoirni qattiq ta'sirlantirganligi aniq sezilib turadi. She'r ichida Tavfiq Fikrat she'ridagi ayrim so'z va birikmalar iqtibos shaklida keltiriladi. Bu esa she'r ustidagi epigraf bilan mustahkam aloqani hosil qiladi.

Botuning "Gulyor" she'ri o'ziga xos tagmatnga ega she'r hisoblanadi. Ta'kidlanishicha, "Bu she'r "Gulyor" xalq qo'shig'i ohangida yozilgan. Milliy istiqlolchilar 1921-yilda qamoqdan ozod qilingan Munavvar qorini shu qo'shiqni aytib kutib olganlar". (Nashrga tayyorlovchi Naim Karimov, Sherali Turdievning izohi). Demak, she'r xalq tilida mavjud bo'lgan qo'shiq qolipida yozilgan. Bu ham intertekstuallikning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ya'ni "Gulyor" turkumidagi qo'shiq mavjud bo'lgani bois "Gulyor" she'ri yozilgan. Shuningdek, she'rda Majnun

pretsedent nomi orqali intertekstuallik hosil qilingan. Majnun, asosan, mumtoz adabiyotimizdagi Layli va Majnun dostonining qahramoni hisoblanadi. Majnunnig ishq va sadoqat ramzi hisoblanishi Botuning mazkur she'rida Munavvarqoriga nisbatan qo'llanilgan va o'z ishiga sadoqatiga, muhabbatiga ishora qilingan.

Matnlararo aloqadorlikning bir ko'rinishi **sarlavha yoki she'r mavzusining mushtarakligi** bilan bog'liq holatlarda ham ko'rinadi. Masalan, Fitratning mashhur "Mirrix yulduzi"ga she'ri bilan Botuning "Temir Qoziq yulduziga" deb nomlangan she'ri o'ziga xos aloqadorlikni hosil qilgan.

Har ikki she'rda ham muallifning yulduzga xitobi va **verdagi** ayrim holatlardan shikoyat epizodi joy olgan.

Botuning "Ko'klam", "O'zbek qiziga" kabi bir necha she'ri Cho'lponning ayni mavzudagi she'rlari bilan tematik o'xshashlikni hosil qiladi. Va ayrimlarida Cho'lpon she'rlariga nisbatan xuddi o'sha mavzuga munosabat bildiriladi. Cho'lponda bu holat biroz mung va dard yuki kuchli bo'lsa bo'lsa, Botuda yangi davr mafkurasiga yon bosish seziladi.

Masalan, Botuning "Oydin kechada" she'ri ham Cho'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasi, "Kaspiy dengiziga" she'ri esa Cho'lponning "Hazar esdaligi" turkum she'rlarini yodga soladi. Umuman olganda, mavzu mushtarakligi bir davr bilan ijtimoiy-siyosiy hayot bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. 20-asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid shoirlar ijodida Fitrat va Cho'lponning ta'siri kuchli bo'lganligi barchaga ma'lum. Ular ko'targan har qanday mavzu boshqa shoir va ijodkorlarni ham ilhomlantirgan. Shu bois mavzu mushtarakligi masalasi bir davr shoir ijodini o'rganishda muhim tamoyil bo'lishi mumkin. Qizig'i shundaki, sovet tuzumining mustahkamlanib borishi natijasida ijodkorlar orasida bo'linish yuzaga keladi. Bu ularning ijodida ham seziladi. Botuning mushtarak bo'lgan ayrim she'rlari Cho'lpon yoki Fitrat ijodiga raddiya sifatida yozilgani sezilib turadi.

Tahlillardan ko'rinib turganidek, **mavzu mushtarakligi** masalasi lingvopoetik tahlil tamoyillaridan biri hisoblangan intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida e'tiborga molik masaladir. Mavzu mushtarakligi bir davr shoirlari ijodini o'rganishda muhim bo'lganidek, davrlararo muqoyasalarda ham qiziq dalillarni namoyon qilishi mumkin.

Botu ijodida intertekstuallikning eng faol shakli epigraflar misolida kuzatiladi. Shuningdek, mazkur hodisaning iqtiboslilik, mavzu mushtarakligi ko'rinishlari ham Botu she'riyatining lingvopoetik qimmatini ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, Botu lirikasida sintaktik usul va vositalardan badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlash uchun keng foydalangan. Sintaktik parallelizm, intertekstuallik hodisasi bilan bog'liq komponentlar vositasida o'zga manbalar bilan aloqadorlikda voqelantirilgan poetik ifodalar matn ekspressivligini, badiiyatini, to'laqonligini ta'minlagan. Matnlararo aloqadorlikning bir ko'rinishi sarlavha yoki she'r mavzusining mushtarakligi bilan bog'liq holatlarda

yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, Fitratning mashhur "Mirrix yulduzi"ga she'ri bilan Botuning "Temir Qoziq yulduziga" deb nomlangan she'ri o'ziga xos aloqadorlikni hosil qilgan. Intertekstuallik, mavzu mushtarakligi hodisasi bilan bog'liq sintaktik vositalardan alohida maqsadlarda foydalangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdupattoev M.T. O'zbek tilining poetik sintaksisi. Filol.fan.d-ri (DSc)... diss. Farg'ona, 2021.
2. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filol. fan. b. f. d-ri (PhD)... diss. –Toshkent, 2021.
3. Qodirov P. Badiiy til muammolari. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti. 1977.
4. Axmetova G. D. "Языковaya kompozitsiya xudojestvennogo teksta (na materiale russkoy prozy 80-90-x godov XX v.)". – M., 2002.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.
6. . Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: filol.fan. d-ri. diss. – Toshkent, 2008.